

Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

AKVARELDA MAKTAB O'QUVCHILARIGA MANZARA ISHLASHNI O'RGATISH

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab o'quvchilari uchun akvarelda manzara ishlash nazariyasini o'z ichiga olgan. Shuningdek, rangtasvir san'atining akvarel bo'yoy texnikasi xususiyatlari va ulardan foydalanish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kolorit, miniatyura, batik, etyud, tus, rang, pigment.

Akvarel bo'yog'i rangtasvirda muhim o'rinni tutadi. U suv bilan aralashtirilgan pigmentlardan iborat bo'lib, o'ziga xos shaffoflik va yorqin ranglar bilan ajralib turadi. Akvarelning o'ziga xosligi shundaki, u ranglarni bir xil yuzaga yengil tarqatish imkonini beradi. Akvarel so'zi italiyancha bo'lib (aquarelle), fransuzcha (aquarelle), inglizcha (painting in water colours) ya'ni suv bo'yoqlar bilan ishlanadigan suvli rangtasvir ma'nosini beradi. Akvarelda ishslash uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu haqida qadimgi Misr va Xitoy qo'lyozmalarida alohida ta'kidlab o'tilgan. San'atshunoslar tomonidan O'rta asrlarda Misr va Xitoy miniatyura maktabi o'rganilgan va ularning ayrim namunalari hozirgi davrgacha yetib kelgan.¹ Akvarelda ishslash 18-19-asrlarda O'rta Osiyoda ham keng tarqalgan, xususan miniyatura asoschisi Kamoliddin Behzod tasviriy san'atga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Shuningdek, o'sha davrlarda akvarelning Yaponiya va Xitoyda ham ishlatilgani ma'lum. Ipakka ishlovchi rassomlar akvarelda ishslashni hayratlanarli yuqori cho'qqiga ko'targan. U davrda asosan qaynoq batikni eslatuvchi shimplarni bezashda va chinni buyumlarga rasm chizishda ishlatilgan.

Akvarel -o'zining shaffofligi bilan boshqa bo'yoqlardan alohida ajralib turadi. Bunga faqat qo'llaniladigan materiallar balki yuqori darajada ishlov berilgan sifatli kukunlardan hamda ranglardan va o'simliklardan ham foydalaniladi.

Akvarel texnikasida manzara ishslash uchun avvalo ranglarni to'g'ri tanlash kerak. Ranglarning bir-biriga munosabati, ranglarning o'zaro uyg'unligi, narsa va detallarni ajratish jarayonlariga alohida e'tibor qaratiladi. Chizilayotgan manzara qaysi fasl, qaysi vaqtligiga qarab ranglar, ranglarning koloriti, soya-yorug'lar va o'zaro ranglar ta'siri ham o'zgaradi. Misol uchun, kunning tongi paytida ranglar nisabat sovuq, kontrastlar kam bo'ladi. Bunda asosan sovuq va issiq ranglar qatnashadi (sariq, ko'k, alvonrang, och, jigarrang v.k) ishlatiladi. Kunning shom paytida esa asosan osmon iliq va yerlarda ham issiq hamda kamroq sovuq ranglar bilan ishlatiladi. Akvarelda manzara ishslashdan oldin, qisqa muddatli etyudlar ishslashdan boshlash kerak. Bu akvarelda tugallangan asar yaratish mahorati uchun poydevor va tajriba bo'lib xizmat qiladi. Akvarel texnikasi suv orqali ishslashni talab qiladi. Ishslash jarayonida nam qog'ozdan foydalaniladi. Qog'oz turiga qarab suv miqdorini ko'tarish uchun sifatli qog'oz (Bomeijia, Vista Artista va shunga yaqin tarshon) qog'ozlar ishlatiladi. Qog'oz o'lchamlariga qarab suv taqsimlanadi qalin bo'lsa ko'proq ,yupqa bo'lsa kist uchida suv qilinadi. Shu jumladan kistlar ham (omoxon yungidan "Vista Artista" kisti, o'lchami 12-01)tanlanadi. Manzara ishslash uchun bo'yoq sifatli va manzara ishslashga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Biz ko'plab akvarel bo'yoqlarni eksperiment qilganmiz, shulardan "Vista Artista", "Ladoga", "White Night",

¹ O. Yusupov "Rangtasvirda akvarel bilan ishslash texnikasi va texnologiyasi". Metodik qo'llanma. 2011.

“Mijello Mission Silver Pen”, “Невская палитра. Белые ночи”, “Невская палитра Санкт-Петербург”, “Lefranc & Bourgeois Louvre”, “Pentel. Water Colours” “Sonet” brendlari akvarelda ishlash uchun eng yaxshilari hisoblanadi.


Manzara ishslashda kistning ro‘li katta ahamiyat kasb etadi chunki manzara ishslash jarayonidagi uzoqdan ko‘rinuvchi daraxtlar bulutlar va maysalar kist shakli orqali ishlanadi. Shu sababli ham akvarel uchun mahsus kistlar talab qilinadi va detallar ishlanadi. Manzara ishslashda ranglarni to‘g‘ri tanlash lozim. Masalan, maysalar ishslash:bunda qog‘oz kist orqali namlanadiva ko‘k qizil aralashtirilib och qilib nam qilingan joyga surtiladi va ustidan och yashil surtiladi. Ustma ust qo‘yilgan ranglar 01 kist orqali quruq joyga donalab chqariladi. Yerni o‘zini ishslash uchun esa to‘q ko‘k va och jigarranglardan foydalaniladi. Uzoqdagi daraxtalni ishslash uchun kist rangga botirilgan holda qog‘ozga yotqizilib asta sekinlik bilan kist boshidan uchuga qarab ko‘tarib olinadi va darat aks ettiriladi. Daraxtlarnig qayerda joylashganligiga qarab ranglar tanlanadi. Birinchi ko‘rinishdagi daraxt uchun och yashil va sariq. Yomg‘irli havo uchun to‘q yashil kuzgi daraxt uchun esa qizil alvonrang va siyo hranglardan foydalaniladi (1-rasm). Yerdan o‘sib chiquvchi yovvoyi gular va o‘tlarni tasvirlashda asosan grizayl usulida tasvirlanadi(2-rasm). Maysalar kichik va katta shaklda bo‘lib rangtasvir qoidalariga rioya qilishni unutmaslik kerak. O‘t-o‘lanlar albatta yer rangiga o‘tishi kerak, bo‘lmasa umumiylilik yo‘qoladi. Rejaga qarab uzoq yaqinligi va havo perspektivaga e’tibor berib och to‘ligi hisobga olinadi(3-rasm). Gullar ishlanganda misol uchun, moychechak (gulning yaprog‘i oq rangda bo‘lganligi sababli qog‘ozning o‘zi oq rang vazifasini bajaradi. Ranglar nam qog‘ozga ketma ketlik asosida qo‘yib ishlanadi. Och ranglar ustiga to‘q ranglar qo‘yiladi. Ishning birinchi qismi fon bilan ishslash va asosiga issiq ranglardan foydalanilgan holda gul yaprog‘lari ishlaniladi. Barcha yaprog‘li gullar shu tartib asosida bo‘yaladi.



1-rasm



2-rasm



3-rasm



4-Rasm

4-rasmda keltirilganiek akvarelda ko‘l bo‘yi manzarasini ishlash diqqat e’tibor va tezlikni talab qiladi. Chunki shamol esishi tufayli bulutlar o‘z shaklini doimiy o‘zgartirib boradi, qog‘ozga tushurish uchun esa tezlik talab qilinadi. Shu bilan birgalikda akvarelda manzara ishlash eskizi uchun tuslarni ajratib olish zarurdir.

Akvarelda naturadan manzara ishlash eskizi uchun tuslarni ajratib olishga xizmat qiladi.Ushbu eskizda sovuq ranglarda foydalanilgan. Eng to‘q joylari orqali tuslar belgilab olinadi. Och va to‘q ranglardan foydalanish orqali uyg‘unlik aks ettiriladi.

Uyg‘unlik nima-uyg‘unlik katta, o‘rta va kichik kabi uchta o‘lchamdagи shakllarning mavjudligi bilan belgilanadi. Shuningdek, bu shakllar orasidagi intervallarning xilma-xilligiga asoslanadi, kompozitsiyada bir xil masofada va bir xil o‘lchamlardan foydalanishdan saqlaning.² Huddi shu yo‘nalishda va uslubda oqshom manzarasini ishlashda ham foydalaniladi.

Nam qog‘ozga ko‘k va sariq rang qo‘yiladi. Quyosh o‘rni belgilab olinib to‘q sariq va alvon ranglar surtiladi. Kistni yengil surtish orqali bulutlar ishlanadi. Oqshom paytida issiq rangdan sovuq ranga qarab ketganligi sababli birinchi plan sovuq ranglarda bo‘yaladi. Bunda ham albatta uyg‘unlik bo‘lishi lozim. Shu sabali ham manzara ishlashda akvarel bo‘yog‘idan foydalaniladi. Chunki akvarel suvda bir biri bilan uyg‘unlashadi va yengillikni o‘zida aks ettiradi.

Akvarelda ishlashni o‘rganish barcha yosh turdagи mактаб o‘quvchilariga bevosa тавфсиya etiladi. Akvarel suvni sevuvchi va qog‘ozga yengil yotuvchi bo‘yoqdir. Shu bilan birgalikda o‘zining murakkab detallari va ularda aks etgan ranglari bilan barcha bo‘yoq turlaridan ajralib turadi. Bolalarga akvarelda suvli va namli qilib ishlash ancha qiziqarli ekanligini tushuntirish uchun o‘qituvchi manzarada ko‘plab ranglavhalar ishlaydi. Akvarelda bosqichma-bosqich manzara ishlash bolaga ranglarni tanlash, tuslarni ajratishga, ranglar orqali tasavvurini boyitadi, bo‘yoqlarni to‘g‘ri aralashtirishni o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.E. Sultanov, D.A.Berdiyev/Akvarelda manzara ishlash metodikasi” /metodik tavsiyanoma. 2023. Chirchiq.
2. Berdiyev Doston Abduvoitovich 2023. Umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitish muammolari (Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi tarixi). *Scientific Impulse*. 1, 9 (May 2023), 520–527.
3. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2024). Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida badiiy studiyalarni tashkil etishning ahamiyati. Iqro indexing, 10(1), 177-181.
4. Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi / 2024 / “Zamonaviy ta’limni tashkil etish davr talabi” / “Ta’limda zamonaviy texnologiyalar: muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
5. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san’at fanini o‘qitishda kelajak ta’limi steam interaktiv ta’limini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022/ Volume 3 Issue 2 Pages: 687-690
6. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Tasviriy san’atning fanlararo aloqalar tizimidagi o‘rni. *PEDAGOGS Jurnali*, 31(1), 142–148.

² X.E. Sultanov, D.A.Berdiyev “Akvarelda manzara ishlash metodikasi” nomli metodik tavsiyanoma. 2023.